

## О'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY ISLOHATLARNING AYRIM XUSUSIYATLARI

*Shahnoza Abdullayeva Nurmatovna*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
akademik litseyi o'qituvchisi, tadqiqotchi*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda yangi qabul qilinayotgan Konstitusiyaning shakllanishining tarixiy-huquqiy asoslari ilmiy-nazariy tahlil qilingan va yangi Konstitusiyaning eng asosiy masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, Temur tuzuklari, norma, Inson qadri uchun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senat, referendum, deputat.

Jahon mamlakatlarida globallashuv jarayonlari bilan inson huquqlari va erkinliklarining ta'minlanishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda ayni paytda shaxsiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotda xalqchil bosh qomusga bo'lgan talabning ortishi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu esa mazkur sohani rivojlantirish zaruratining kuchayib borayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari konstitutsiyaviy huquq sohasining tarixi ham bugun muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham bu borada sezilarli tarixiy yo'l bosib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining yaratilishi tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiya" atamasiga ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiya (lotincha "Constitution" – tuzilish, tuzilish) – davlatning Asosiy qonuni. U hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, davlat tuzilishini, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

"Konstitutsiya" atamasi qadimgi Rim tarixida imperator qonunlari, Chingizxon davrida "Yasoq", Amir Temur davlatida "Temur tuzuklar" tarzida ifodalangan. O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaviy huquqni qurishda uch ming yillik milliy davlatchilik tajribasiga ega. Unda qadimgi Xorazm va So'g'diyona, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklari, jadidlar faoliyati, xalqimizning tarixiy an'analari va uning mustaqil davlat haqidagi ko'p asrli orzusini mujassam etilgan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida 1992 yil 8 dekabrda Konstitutsiya qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar bugungi kun zarurati sifatida 1992 yil

8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyani ayrim qismlarini o'zgartirish, ayni vaqtda eskirgan o'z ahamiyatni yo'qotgan normalarini, shuningdek yangi paydo bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish lozimligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari keyingi yillarda "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" talablaridan kelib chiqib, manfaatlarimiz va intilishlarimizdan kelib chiqqan holda, asosiy qonunimiz jahon mamlakatlarining to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribasini hisobga olib, yangi loyiha tuzilib, referendum (umumxalq muhokamasi) uchun taqdim qilinmoqda. "Tegishli qaror loyihasi Qonunchilik palatasining 2023 yilning 10 martdagi yalpi majlisida ko'rib chiqilib, deputatlar tomonidan qabul qilindi. Referendum o'tkazish haqidagi qarorga ovoz berish jarayonida 134 nafar deputat qo'llab-quvvatladi, 2 nafari betaraf qoldi, 1 nafari ovoz bermadi."<sup>1</sup>

Demak, referendum o'tkazish uchun huquqiy asoslar mavjud. Yangi qabul qilinishi lozim konstitutsiyada moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni esa 275 tadan 434 taga ko'paymoqda. Mutaxassislar ma'lumotlariga ko'ra konstitutsiya matni 65 foizga yangilangan, shuning uchun qabul qilinishi lozim bo'lgan hujjat nomi «Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar»dan «Konstitutsiya yangi tahrirdagi»ga o'zgartirildi. Ommaviy axborot vositalari ma'lumotlariga tayanib, mazkur qonun loyihasiga 137 deputatdan 132 nafari qonunni yoqlab ovoz berganligi, 2 nafari betaraf va 3 nafari ovoz bermaganligini qayd etishimiz kerak. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Oliy Majlisda deputatlar tomonidan qabul qilinishi kutilayotgan konstitutsiya qizg'in muhokama qilindi. "Xususan, Konstitutsiya loyihasining 18-moddasi 1-qismi bo'yicha deputat Nodira Jonibekovaning taklifi [muhokama qililib](#), ushbu qism yangi tahrirda e'lon qilindi: "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi". Shuningdek, deputat Sherzod To'xtashevning Konstitutsiyaning 27-moddasiga o'zgartirish kiritish bo'yicha taklifi qabul qilindi."<sup>2</sup>

Demak, Oliy Majlis deputatlari va keng xalq ommasining muhokamasi yordamida bosh qomusimiz amaliy takliflar bilan boyitildi.

Normativ hujjatning zaruriy sharti sifatida Konstitutsiya to'liq matni tegishli tartibda oldindan ommaviy axborot vositalarida, internetda e'lon qilindi.<sup>3</sup>

Yangi Konstitutsiya mazmun va shakl jihatidan zamonaviy dunyo, xususan, O'zbekiston Respublikasi oldida turgan turgan muhim bir qator masalalarni norma sifatida kiritilishi bilan xarakterlanadi. Jumladan, ta'lim masalasi, tashqi siyosat, inson

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/10/referendum/>

<sup>2</sup> <https://daryo.uz/2023/03/10/ozbekistonda-yangi-konstitutsiya-boyicha-referendum-30-aprelda-otkaziladi>

<sup>3</sup> <https://www.xabar.uz/jamiyat/yangi-konstitutsiyaning-toliq-matni>

va fuqarolarning huquq va erkinliklarining tizimli va manzilli himoyasi masalasi, shuningdek advokatura institutining alohida bob sifatida kiritilishini alohida qayd etishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan jamiyatimizda mavjud ammo tartibga solinmagan bir qator ijtimoiy munosabatlarni qonuniy tartibga solinishi nazarda tutilmoqda.

**Birinchidan,** mazkur Konstitutsiya inson qadri uchun tamoyilida amalga oshirilayotgan islohatlarning mantiqiy va tadrijiy davomi hisoblanadi.

**Ikkinchidan,** O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida to‘planib qolgan huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun xizmat qiladi.